“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Korrupsiyaga qarshi kurashish: davlat organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi ijtimoiy sherikchilikning ustuvor vazifalari

Mansurjon Xamidov,,
Navoiy viloyati “Noila” ijtimoiy ko‘mak, huquqiy targ‘ibot va monitoring markazi rahbari,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)
e-mail: x.mansur2024@mail.ru

Аннотация. maqolada davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining navbatdagi yig‘ilishida o‘zaro muloqot jarayonida “Noila” IKHTM markaziga berilgan tavsiyalar asosida olib borilgan izlanishlar yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy so‘rovlar natijasida olingan tahliliy xulosalar, maishiy korrupsiyaga yo‘l ochayotgan munosabatlar, ularning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda samarali ijtimoiy sherikchilik yo‘nalishlari atroflicha tahlil qilinib, dastlabki xulosalar bayon etilgan.

Калит сўзлар. Korrupsiya, fuqarolik jamiyati, global xavf-xatar, jamoatchilik, maishiy korrupsiya, ijtimoiy sherikchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat organlari, “Transparency International” xalqaro tashkiloti, ijtimoiy audit.

Аннотация. в данной статье освещены исследования, проведенные Главой государства на основе рекомендаций, данных Центру по борьбе с коррупцией“Ноила”в ходе диалога на очередном заседании Национального совета по борьбе с коррупцией 5 марта 2025 года. Также были подробно проанализированы аналитические выводы, полученные в результате социальных опросов, отношения, способствующие бытовой коррупции, направления эффективного социального партнерства в их предотвращении и борьбе с ними, изложены предварительные выводы.

Ключевые слова. Коррупция, гражданское общество, глобальные риски, общественность, бытовая коррупция, социальное партнерство, институты гражданского общества, государственные органы, международная организация “Transparency International”, социальный аудит.

Annotation. this article highlights the research conducted based on the recommendations given by the Head of State to the“Noila”ICCEM center during the dialogue at the next meeting of the National Anti-Corruption

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Council on March 5, 2025. Also, the analytical conclusions obtained as a result of social surveys, the relationships that open the way for domestic corruption, the directions of effective social partnership in their prevention and fight against it are comprehensively analyzed, and preliminary conclusions are presented.

Keywords. Corruption, civil society, global threat, public, domestic corruption, social partnership, civil society institutions, government bodies, Transparency International, social audit.

Dunyo miqyosida barcha mamlakatlarni tashvishga solayotgan hamda hal etilishi lozim bo‘lgan eng dolzarb muammolardan biri korrupsiya hisoblanadi. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol etilishiga olib keladi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining ustuvor masalalari qatorida turadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Transparency International” xalqaro tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiyaning yetkazgan zarari hisoblanganda o‘zgalarning mulki va pul mablag‘larini o‘zlashtirish, shuningdek, ushbu jarayon bilan bog‘liq boshqa jinoiy harakatlar to‘liq inobatga olinmaydi. Shu bois korrupsiya va poraxo‘rlik global miqyosda “taraqqiyot kushandasi” sifatida baholanishi mumkin.

Bunday illatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham eng dolzarb global muammolardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ularga qarshi kurash masalalariga doimiy ravishda alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, BMTning 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi xalqaro-huquqiy hujjat sifatida korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurashni tashkil etish hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab berdi. O‘zbekiston ushbu Konvensiyaga 2008-yil 7-iyulda qo‘shilgan [1].

Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi iqtisodiy zarari taxminan 3 trillion AQSh dollarini tashkil etmoqda. Biroq mazkur ko‘rsatkichlar korrupsiya natijasida kelib chiqadigan real zararning to‘liq manzarasini aks ettirmaydi. Eng og‘ir oqibat – jamiyatga yetkazilayotgan ma’naviy zarar bo‘lib, uni aniq o‘lchovlar bilan baholash imkoniyati mavjud emas.

O‘zbekistonda 2017–2024-yillar davomida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Mazkur muammoning jiddiyligini chuqur anglagan holda, mamlakatimiz BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida huquqiy va institutsional islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi [2].

2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq 2019–2020-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi [3].

Shuningdek, O‘zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma’lumotlar xartiyasiga a’zo bo‘ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari, shuningdek, boshqa xalqaro platformalar doirasida faol ishtirok etib kelmoqda. G‘arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog‘i kotibiyati vazifasini bajarmoqda. Har yili Toshkent shahrida an’anaviy xalqaro antikorrupsiya forumi o‘tkazib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston “Transparency International” korrupsiyani qabul qilish indeksida 42 pog‘onaga ko‘tarilib, mintaqada yuqori ko‘rsatkichlarga erishdi. 2030-yilga qadar mazkur reytingda mamlakat o‘rnini yana 50 pog‘onaga yaxshilash maqsad qilingan. “Open Data Inventory” reytingida O‘zbekiston 30-o‘rinni, ochiq ma’lumotlar manbalari bo‘yicha esa dunyoda 4-o‘rinni egallagan.

O‘zbekiston 2023-yil 19-dekabrda “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak mukofoti”ning tantanali marosimiga mezbonlik qilib, ushbu sohada olib borayotgan sa’y-harakatlari va erishgan yutuqlari uchun xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, poytaxtimizda xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi sa’y-harakatlarini ifodalovchi, ochiq kaft shaklidagi monument barpo etildi. Ushbu kompozitsiya halollik, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik hamda butun jahonni ushbu illatga qarshi birlashishga da’vat g‘oyalarini aks ettiradi.

O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish borasida aniq strategik maqsadlarni belgilab olgan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham mazkur yo‘nalish alohida ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalb etgan holda tajriba almashish, muloqotlarni kuchaytirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida Korrupsiya muammolari bo‘yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlat rahbari tomonidan 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashishda jurnalistlar salohiyatidan samarali foydalanish hamda ularning ta’sirini oshirish maqsadida Global media forumni o‘tkazish taklifi ilgari surilgan edi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. anticorruption.uz/oz/article/ BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ishtirokchi-davlatlari konferensiyasida Konvensiyaning 12-moddasi yuzasidan O‘zbekiston amaliyoti taqdim etildi. Anticorruption.uz.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.
https://lex.uz/docs/-3088008?ondate=21.04.2021
3. www.gov.uz/oz/emdra/pages/korrupsiyaga-qarshi-kurash
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi. president.uz/uz/lists/view/6934.
Internet manbalari:
http://www.lex.uz
http://www.uza.uz
https://president.uz
https://www.anticorruption.uz